ISSN: 2181-1741 (print)
ISNN: 2181-1725 (online)
2025 / № 3. 1-3

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL
ADABIYOT
TA'LIM



Philological research:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

Филологические исследования:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

pholologicalresearch.uz

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 3. 1-3

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.09.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.09.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.09.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

XUDOYBERGANOVA DURDONA
Metaforalar shakllanishida antropotsentrik omillarning o‘rni 7

ЛУТФУЛЛАЕВА ДУРДОНА
Aksiolingvistikada qadriyat tushunchasi va uning turlari 10

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Andijon dialektal zonasi haqida 16

HAKIMOV MUHAMMADXON XO‘JAXOVICH
Genderoleksemalarning nominativ farqlanishi 20

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH
Dunyo tilshunosligida o‘zlashma so‘zlarga munosabat masalasi 25

ДУСТМУРОДОВ МАЪРУФЖОН МАНСУР ЎҒЛИ
Уйғур хоқонлиги даври ёдномалари туркумидан:
тариат (ТЭРХ) битиги ҳақида баъзи мулоҳазалар 28

UBAYDULLAYEV ALISHER ABDUSALOMOVICH
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» qo‘lyozmasining lingvistik tahlili 33

XUJAMKULOVA MAXBUBA BOBONAZAROVNA
Badiiy matnning presuppozitiv tahlili 38

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Tog‘ay Murod nasriy nutqida metaforaning statistik tahlili 42

SHAYMARDANOVA AZIZA RAIMJANOVNA
Lingvistik kodlar aralashuvi tushunchasi va uning
lakunarlik hodisasini bartaraf etishdagi imkoniyatlari 48

ESHNIYOZOVA GULHAYO HAMROQUL QIZI
Halima Xudoyberdiyeva she’rlarida badiiy
san’atlarni qo‘llash mahorati 51

SULAYMONOV BOBIR
Izoh tipidagi o‘quv lug‘atlarda leksikografik
semantizatsiyaga qo‘yiladigan talablar 55

BOYSARIYEVA SAODAT
Morfem o‘quv lug‘atining amaliy jihatlari 58

DAVIDOV YUNUS JUMMAYEVICH
Badiiy asarlarda ko‘pma’nolilikning uslubiy xususiyati 61

ZARIPOVA MATLUBA QULFITDINOVNA
O‘zbek va rus tillarda tarjimaning lingvokulturologik
va peyorativlik muammolari 64

AZIZ AMINI
Frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning leksikografik
xususiyatlari (Afg‘oniston o‘zbek dehqonlari nutqi misolida) 66

МУНДАРИЖА

ALLAMURATOVA XOSIYAT
O‘zbek antroponimikasida apotropeik komponentlarning
sodda va qo‘shma ismlarda ifodalanishi 69

РАДЖАПОВА НАТАЛЬЯ БАЗАРОВНА
Синонимические отношения в словах с
гендерными признаками узбекского языка 73

HATAMOV ZIYODIN MAMADULLAYEVICH
Badiiy uslubda modal so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari 76

ALIMOVA E’TIBOR KAROMAT QIZI
O‘zbek xalq ertaklarida mifonim va teonimik birliklar 81

MUXAMMADALIYEVA SHAXZODA MAXMUD QIZI
Maqollar orqali ramziy ma’noning ifodalanishi 89

ABRUYEVA ZAXRO SHOKIR QIZI
O‘zbek tili murojaat shakllari tizimida kognitiv metaforaning o‘rni 92

XUDAYBERGANOVA MUNIRA
«Muqaddimatu-l-adab» asari ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar:
tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari 96

ABDUQAHHOROVA XOSIYAT ABDURASUL QIZI
Tarixga oid terminlarda o‘z va o‘zlashma qatlam 100

SHADMANOVA ALYONA SERGEYEVNA
Paustovskiy hikoyalarida syujet poetikasi 104

QOSIMJONOVA FARANGIZ FARID QIZI
Iboralarning so‘z turkumlariga munosabati 108

ADABIYOTSHUNOSLIK

ҚУРОНОВ ДИЛМУРОД ҲАЙДАРАЛИЕВИЧ
Эътибордан четда қолган нашр 111

ШОФИЕВ ОБИДЖОН БАХТИЁРОВИЧ
Психологик таҳлил ва бадиий драматизм
(Эркин Аъзамнинг «Таъзия» ва «Ступка» ҳикоялари мисолида) 117

АЛИМОВ ПАРДА, АВРИДДИНОВ ЖОБИР
Бадиий характер муаммоси 121

YULDOSHEV DILMUROD
Matyoqub Qo‘shjonov talqinida qodiriy fenomeni («O‘zbekning o‘zligi» asari misolida) 123

ДИЛФУЗА ПАРДАЕВА
Художественные интерпретации образа Амира Нимура и его
времени в русской и узбекской поэзии XX века 129

BOLTAYEVA GULCHEHRA SHOKIROVNA
Taxmislarning spetsifik belgilari 132

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 7-8
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«MUQADDIMATU-L-ADAB» ASARI USTIDA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOTLAR: TILSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK YONDASHUVLARI

Xudayberganova Munira,
Xorazm Ma'mun akademiyasi taryanch doktoranti

Arab tili grammatikasi masalalari, ayniqsa arab lug'atshunosligining shakllanishi, taraqqiyoti va ilmiy maktab sifatida shakl topishi qadimdan jahon sharqshunoslik ilmida eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida baholanadi. Chunki arab tili nafaqat Qur'oni karim tili, balki butun islom sivilizatsiyasi uchun ilm, falsafa, adabiyot va madaniyatning asosiy ifoda vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shuning uchun arab grammatikasi masalalariga bo'lgan qiziqish nafaqat arab olimlari orasida, balki musulmon sharqining boshqa mamlakatlarida ham, keyinchalik esa Yevropa tilshunoslik doiralarida ham juda yuqori bo'lgan. Arab tilshunos olimlari grammatikaga oid qarashlarida tilning fonetik, morfologik va sintaktik tizimlarini chuqur tahlil qilib, o'z davri uchun mukammal bo'lgan nazariy asarlar yaratganlar. Ularning ishlarida nafaqat nazariy qoidalar, balki amaliy qo'llanmalar, o'quvchi va talabalarga mo'ljallangan lug'atlar, izohli sharhlar va qiyosiy tahlillar ham o'z aksini topgan. Arab lug'atshunoslari esa o'z navbatida arab tilining ulkan so'z boyligini to'plash, izohlash va tartibga solish bilan shug'ullangan bo'lib, ular yaratgan lug'atlar o'rta asr Sharqida ilmiy hayotning ajralmas qismi hisoblangan. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, arab grammatikasi va lug'atshunosligining yirik namoyandalari orasida Sibavayh, Farro, Mahmud Zamaxshariy, Ibn Jinniy, Ibn Manzur kabi buyuk mutafakkirlar bor bo'lib, ularning asarlari nafaqat arab dunyosida, balki boshqa mintaqalarda ham katta obro' va ta'sirga ega bo'lgan. Ayniqsa, Zamaxshariyning «Al-Mufassal» va «Muqaddimatu-l-adab» asarlari arab tili grammatikasida yangi bosqichni boshlab bergan bo'lsa, Ibn Manzur tomonidan tuzilgan «Lisonu-l-arab» asari arab lug'atshunosligining cho'qqisi sifatida e'tirof etiladi. Natijada arab grammatikasi va lug'atshunosligining shakllanish jarayonlari nafaqat tilshunoslik tarixida, balki butun ilmiy tafakkur taraqqiyotida muhim bosqichlardan biri sifatida qaraladi. Chunki arab tili grammatikasi orqali musulmon olamida ilmiy tafakkur maktablari shakllanib, keyinchalik ular boshqa tillarga, jumladan fors, turkiy va hatto yevropa tillarining tilshunoslik tadqiqotlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu tariqa arab grammatikasi masalalarining o'rganilishi va lug'atshunoslikning rivoji jahon ilmiy tafakkurida alohida iz qoldirgan fundamental ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Mahmud Zamaxshariy merosiga bo'lgan qiziqish hali u hayotligidanoq paydo bo'lgan. O'z davrining taniqli olimlari, adiblari va tarixchilari o'z asarlarida uning hayoti, faoliyati hamda ilmiy yutuqlari haqida muhim ma'lumotlar qoldirganlar. Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy, «Jarulloh» nomi bilan mashhur bo'lgan alloma, hijriy 467-yilda (milodiy 1075) Xorazmning Zamaxshar qishlog'ida tug'ilgan va hijriy 538-yilda (milodiy 1144) Jurjonda vafot etgan. U o'z davrining mashhur grammatik, mufassir, adib va tilshunos olimlaridan biri sanaladi. Tarixiy manbalarga ko'ra, ko'plab mashaqqatlarni, jumladan, bir oyog'idan ayrilish azobini boshdan kechirgan bo'lsada, butun hayotini ilm-ma'rifat va yozuvchilik ishlariga bag'ishlagan.

Zamaxshariy o'z davrida turli sohalarda bir qator mashhur asarlar yaratdi. Uning eng mashhur kitoblari qatorida *al-Kashshof*, *al-Mufassal fi an-Nahv*, *Asos al-Baloga*, *Rabi' al-Abror*, *Atvoqu'z-Zahab*, *al-Amoliy* hamda ayniqsa *Muqaddimat ul-Adab*ni tilga olish mumkin. Har bir asar islom olami ilmiy merosida alohida ahamiyat kasb etadi. *Muqaddimatu-l-Adab* dastlab arab tilini o'rgatishga mo'ljallangan qo'llanma sifatida yozilgan bo'lsa-da, uning ahamiyati bundan ham kengroqdir. Bu asarda arabcha so'zlar izohlanib, ularning forsiy va turkiy til muqobillari keltirilgan. Shu jihati bilan u nafaqat arab tilining boy lug'aviy xazinasi haqida ma'lumot beradi, balki o'sha davrdagi ko'p tillilik muhitini – arab, fors va turkiy tillar o'zaro yonma-yon mavjud bo'lgan madaniy sharoitni ham aks ettiradi. Asar tuzilishi ham mukammal bo'lib, avval otlar va ularning turlari sharhlanadi, keyin esa fe'llar, ularning tuslanishi va so'z o'zgarishlari bayon etiladi. Shu tarzda *asar* lug'at ham, grammatik qo'llanma sifatida xizmat qilgan. Bu uni arab tilini o'rganuvchi-

lar uchun ham, arab bo‘lmagan musulmon olimlari uchun ham muhim manbaga aylantirgan.

Bugungi kunda *Muqaddimat ul-Adab*ning ko‘plab qo‘lyozma nusxalari islom dunyosining turli kutubxonalarida saqlanadi. Ammo ular bir xil emas: ayrim nusxalarda forscha izohlar ko‘proq uchrasa, boshqalarida turkiy muqobillar kengroq yoritilgan. Keyingi asrlarda asar bir necha bor turkiy tillarga tarjima ham qilingan. Shulardan eng mashhurlaridan biri hijriy XII asrda (milodiy XVIII asrda) Xo‘ja Nosiriddin al-Balxiy tomonidan qilingan chig‘atoycha tarjimadir[1].

*Muqaddimat ul-Adab*ning ahamiyati faqatgina lug‘aviy ma’lumotlarda emas, balki arab, fors va turkiy madaniyatlar o‘rtasida vositachilik qilganida hamdir. Zamaxshariy bu asarni keng kitobxonlar uchun arab tilini oson o‘rganish imkoniyatini yaratish maqsadida yozgan. Shu sababli, asar asrlar davomida qayta-qayta ko‘chirilib, o‘qilib, tarjima qilingan va ilmiy muhitda muhim manba sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Muqaddimatu-l-adab asari yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyati qisqa maqolalar, tahririy izohlar yoki ayrim bo‘limlarga bag‘ishlangan kichik hajmli ishlar shaklida bo‘lgan. Mahmud Zamaxshariyning bu mashhur asari mustaqil ravishda to‘liq holda keng tadqiq qilinmagan. Shu jihatdan qaralganda, bu asar ustida olib borilgan ilmiy izlanishlar ko‘proq lug‘aviy va grammatik jihatlarga e’tibor qaratganini ko‘rish mumkin. Tehron va Leypsig shaharlarida chop etilgan ayrim qismlarga oid tahririy ishlarda ham asarning umumiy mazmuni to‘liq yoritilmagan. Masalan, 1316 hijriy yilda (milodiy 1937) Tehronda chop etilgan maqolada asar tahlil qilinib, lekin qisqa ko‘rinishda keltirilgan. Shuningdek, 1356-yilda (milodiy 1977) Leypsigda nashr qilingan tadqiqotda ham *Muqaddimat ul-adab*ning ayrim qo‘lyozma nusxalari solishtirilgan bo‘lsada, ammo u mukammal va keng qamrovli ilmiy nashr darajasida emas. Bu kitob ilk bor 1513- yilda nemis olimi I. G. Vetshtayn tomonidan Leypsigda ikki jildlik shaklda chop etilgan. Ushbu nashr asosan arabcha matnga asoslangan bo‘lib, unga turli izohlar va forscha tarjimalar ham qo‘shilgan. Lekin bu nashrning ayrim sahifalari nuqsonli bo‘lganligi bois, ko‘plab o‘quvchilar matndan to‘liq foydalana olmaganlar. Nashrda matnni tuzatish jarayonida boshqa qo‘lyozmalardan olingan variantlar ham kiritilgan. Natijada, asliyatga xos bo‘lmagan so‘zlar, ba’zan noto‘g‘ri tushunilgan iboralar matnga qo‘shilib ketgan.

Leypsig nashridan foydalanilgan qo‘lyozma manbalar quyidagilardir:

1. Vena shahridagi Milliy kutubxonada saqlanayotgan nusxa.
2. London shahridagi qo‘lyozma nusxa.
3. Parijdagi Milliy kutubxonadagi qisqa nusxa.
4. Berlin shahridagi qirollik kutubxonasida mavjud qo‘lyozma.
5. Leypsigdagi universitet kutubxonasida saqlangan boshqa bir nusxa.

Bu nashrda asarning arabcha matniga qo‘shimcha ravishda forscha tarjimalar ham ilova qilingan. Kitobning oxirida qo‘lyozma manbalarining katalogi ham berilgan. 1356 yilda Tehron universiteti tomonidan yana bir bor qayta chop etilgan bo‘lsa-da, bu nashr ham asarning to‘liq tanqidiy matni darajasiga yetmagan.

«Muqaddimatu-l-adab» asari nafaqat turkiy xalqlar, balki arab va fors olimlari orasida ham keng o‘rganilgan. Asarda ayrim so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi, talaffuzi va ma’nosi yuzasidan turli sharhlar berilgan. Masalan, «nasj» (to‘qish) so‘zining turli lug‘atlardagi shakllari ko‘rsatiladi. Ba’zi qadimiy nusxalarda bu so‘z «naboriz» yoki «nabariz» shaklida uchraydi, keyingi tadqiqotchilar esa uni boshqa shakllarda qayd etganlar. Bu holat asarning uzoq vaqt davomida turli muhitlarda nusxa ko‘chirilishi va o‘rganilganini ko‘rsatadi. Asarning qadimiy qo‘lyozmalari ko‘plab izohlar va qo‘shimchalar bilan boyitilgan. Ularning ayrimlari so‘zlarning sinonimlarini keltirsa, boshqalari esa fors tilidagi muqobillarini taqdim etgan. Bu esa asarning keyinchalik o‘quvchilar uchun yanada tushunarli bo‘lishiga xizmat qilgan. Ayrim nusxalarda arab tilidagi so‘zlarning forsiy tarjimalari alohida qo‘shilgan bo‘lib, bu, ehtimol, asarning forsiyzabon hududlarda keng foydalanilganini ko‘rsatadi. «Muqaddimat ul-adab» bir necha bor toshbosma va bosma shakllarda nashr qilingan. Masalan, Tehron universiteti 1312–1313 hijriy yillarda uni ikki jildda chop ettirgan. Birinchi jildda asarning matni, ikkinchi jildda esa izoh va qo‘shimchalar kiritilgan. Keyingi yillarda yana boshqa nashrlari ham amalga oshirilgan, ba’zilari qisqartirilgan shaklda, boshqalari esa to‘liqroq holda chop qilingan. Ayrim tadqiqotchilar qo‘lyozmalarni tanqidiy o‘rganib, undagi kamchilik va xatoliklarni tuzatishga harakat qilganlar. Biroq, ba’zi hollarda izohlar muallifga emas, balki keyinchalik nusxa ko‘chirgan shaxslar tomonidan qo‘shilgan. Shu bois, «Muqaddimat ul-adab»ning asl matni va keyinchalik unga kiritilgan qo‘shimchalarni farqlash ilmiy jihatdan muhim masala hisoblanadi.

«Muqaddimat ul-adab» qo‘lyozmalarining turli davrlarda ko‘chirilgan nusxalarida **nasx** va **nastaʿlīq**

[1] راهبنا و تسب تا و لوا ، دوره چهارم، شماره ایران‌یزن، 2013، ص. 15 // **يدبألادبع هماندقتعا حيحصتحيحص** .153–173

yozuv usullari keng qo‘llanilgan. Nasx yozuvi asosan ilmiy va diniy matnlarni ko‘chirishda qulay bo‘lgani uchun qo‘llangan bo‘lsa, nastaʿlīq yozuvi ko‘proq adabiy va badiiy asarlar nusxalarida ishlatilgan. **Nabarīz** belgilaridan foydalanish esa lug‘aviy ma’nolarni aniqlash, talaffuzni ko‘rsatish hamda matnning o‘qilishi va tushunilishini osonlashtirishda yordam bergan. rab tilshunosligida النحو **(an-naḥw – grammatika)** va الصرف **(aṣ-ṣarf – so‘z yasalishi, morfologiya)** masalalari qadimdan markaziy o‘rinni egallagan. Ayniqsa, المعجم **(al-mu‘jam – lug‘at, leksikografiya)** tuzish va uni nazariy jihatdan asoslash jarayonlari jahon sharqshunosligida ham diqqatga sazovor bo‘lgan. Zamaxshariy arab grammatikasining nazariy asoslarini izchil ishlab chiqqan, النحو (nahv) bo‘yicha mustaqil qarashlar ilgari surgan, الصرف (sarf) masalalarini mukammal tarzda yoritgan hamda المعاجم (al-maʿājim – lug‘atlar) tuzish tajribalariga ilmiy asos yaratgan. Shu bilan birga, u arab filologiyasida o‘zidan avvalgi maktablarni sinchiklab tahlil qilgan va yangicha qarashlarni ilgari surish orqali tilshunoslik tarixida alohida o‘rin egallagan.

Zamaxshariyning boy va serqirra ilmiy merosi oradan necha asrlar o‘tganiga qaramay, bugungi kungacha o‘z ilmiy qiymatini yo‘qotmagan va mutaxassislarning doimiy e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi haqida iroqlik olim Abul Barokot al-Anbariy[1], tarixchi, adib Ibn al-Qiftiy[2], tarixchi va geograf Yoqut al-Hamaviy[3], adib va huquqshunos Muhammad Ibn Xallikon[4], Mirzo Muhammad Boqir[5], tarixchi, shajarashunos va shayxul islom Usmon az-Zahabiy[6] kabi olimlar Mahmud Zamaxshariy hayot yo‘li, ijodiy va ilmiy merosiga oid ma’lumotlar berishgan.

Allomaning ilmiy merosiga eron olimlari ham ko‘p bora murojaat qilishgan. Eronda Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosiga oid o‘ndan ortiq risolalar, tadqiqotlar, yuzlab ilmiy maqolalar dunyo yuzini ko‘rdi. Eronlik olimlardan Ali Rizo Boqir, Ali Rizo Muxtorfur Qahrudiy[7] hamda Zuhra Ozariy kabi olimlar alloma Mahmud Zamaxshariyning hayoti va ilmiy ijodiga oid tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Nemis sharqshunosi Karl Brokelman[8], misrlik professor Ahmad Muhammad al-Xufi, professor Fozil Solih as-Samariylar tomonidan ham Mahmud Zamaxshariyning hayoti va ilmiy yo‘li, asarlariga bag‘ishlangan qator bibliografik va monografik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mahmud Zamaxshariy ilmiy ijodini o‘rgangan rus olimlari ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Ulardan V.Bartold[9], A.Krimskiy[10], N.Poppe[11], B.Xalidov, A.Xalidov[12] va A.Borovkovlarni[13] sanab o‘tish mumkin.

Mahmud Zamaxshariy ijodi, uning falsafiy va diniy qarashlariga oid M.Sirjiddinzoda kabi tojik olimlari tomonidan ham dissertatsiya ishlari amalga oshirilgan.

Yurtimizda ham alloma ijodi bilan bog‘liq qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu borada A.Rustamov[14], U.Uvatov[15], Mahkam Mahmud va Nazarbek Rahim[16], F.Zohidlar[17] tomonidan turkum kitoblar, monografiyalar chiqarilgan. Xorazm ilmiy muhitida ham Zamaxshariy merosiga doimiy e’tibor qaratilib keladi. Jumladan, professor Abdulla Durdiboyevich O‘razboyev tomonidan allomaning asarlari chuqur o‘rganilgan bo‘lib, ularning ilmiy tahlili asosida maxsus o‘quv-uslubiy qo‘llanma yaratilgan. Mazkur tadqiqot va qo‘llanma Zamaxshariy ta’limotini zamonaviy ta’lim jarayonida o‘rganish va qo‘llash uchun nazariy hamda metodik asos vazifasini o‘taydi.Xususan,

1 ابن الانباري. نزهة الألباء فى طبقات الأدباء. المحقق: إبراهيم السامرائي. مكتبة المنار. 1405/1

2 لي بن يوسف القفطي. إنباه الرواة على أنباه النحاة. المحقق: محمد أبو الفضل إبراهيم. مؤسسة الكتب الثقافية في بيروت. ٦٨٩١/٦٠٤١ .

3 قوت بن عبد الله الحموي. معجم الأدباء. الناشر: عيسى البابي الحلبي. ٩١/٥٥٣١ يا

4 ابن خلكان. وفيات الاعيان وانباء ابناء الزمان. المحقق: إحسان عباس. الناشر: دار صادر. ٧٧٩١/٧٩٣١

٥ الميرزا محمد باقر الموسوي الخوانساري. روضات الجنات ، في أحوال العلماء والسادات. ناشر: اسماعيليان. ٠٧٩١/٠٩٣١ .

6 محمد بن أحمد بن عثمان بن قايماز الذهبي. سير أعلام النبلاء. المحقق: شعيب الأرناؤوط - بشار معروف - آخرون . الناشر: مؤسسة الرسالة. ٥٨٩١/٥٠٤١

7 فخر خوارزم (مروری بر زندگی و آثار جارالله زمخشری). علیرضا باقر، علیرضا مختارپورقهرودی.

8 7, Leidin. – I, Bd. literatur arabischen der Geschichte. C B

9 Бартольд В.В. Рукописи Замахшари со старотюркскими глоссами. Сочинения. Т. 8. – С. 465-468

10 Крымский А. Арабская литература в очерках и образцах. – М., 1911.

11 Поппе Н.Н. Монгольский словарь «Мукаддимату-л-адаб». Т. 1, 2. – М.: изд. АНСССР, 1938.

12 Халидов Б.З. Замахшари (о жизни и творчества) // Семитские языки. – М., 1965, Халидов Б.З., Халидов А.Б. Биография аз-Замахшари, составленная его современником ал-Андарасбани // П.П.В (ежегод.) 1973, 1979. – С.203, 212.

13 Боровков А.К. Тюркские глоссы в Бухарском списке «Мукаддимату-л-адаб». - М., 1971

14 3 Рустамов А. Маҳмуд Замахшарий. – Тошкент: Фан, 1971.

15 Абу-л-Қосим Маҳмуд аз-Замахшарий. Нозик иборалар. У.Уватов таржимаси. – Тошкент: Камалак, 1992; Маҳмуд аз-Замахшарий. - Тошкент: Мерос, 1995; Хоразмлик буюк аллома. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.

16 Маҳкам Маҳмуд, Назарбек Раҳим. Олтин шодалар. – Тошкент: EXTREMUM PRESS, 2010.

17 Замахшар тасбеҳи ёхуд 101 манзума. Фозил Зоҳид. Таржимон Р.Зоҳид. – Тошкент: Муҳаррир, 2011.

Z.Islomov[1], M.Hakimjonov[2], M.Nosirova[3], A.Boltayev[4], N.Sulaymonova[5], S.Qosimova[6], Sh.Mirziyatov[7] va D.Xudjanovalar[8] tomonidan amalga oshirilgan dissertatsiya ishlarini ko‘rsatish mumkin. 1964-yilda Kembrijning Girton kollejida iroqlik olim Bahiyja Boqir Al-Husniy «Mahmud Zamaxshariy tarjimayi holi va «Rabi’ al-abror» asari bir qismining tanqidiy matni» mavzusida PhD dissertatsiyasini yoqlagan. Mazkur tadqiqot 3 bob 17 bo‘limdan iborat bo‘lib, 3-bobi «Rabi’ al-abror» asariga bag‘ishlanadi. Tadqiqotda asarning 98 bobidan 1-bobining tanqidiy matni amalga oshirilgan. Keyingi yillarda ham «Rabi’ al-abror» asari bo‘yicha ayrim tadqiqotlar yuzaga keldi.

Husayin Samanji «Ez-Zemaḫşerî’nin hayati ve arap edebiyati alanindaki çalişmalari» nomli magistrlik ishini yozdi. Bu ishda Mahmud Zamaxshariyning adab ilmi sohasidagi xizmatlari va «Rabi’ al-abror» asarining yozilish maqsadi, uning manbalari haqida ma’lumot keltiriladi. 2017-yilda yana bir turk olimi Hasan Erkazan «Zemahşerî’nin eserlerinde bulunan hadîslerin kaynaklari» nomli maqolasida «Rabi’ al-abror» asarida keltirilgan hadislarga to‘xtalib o‘tadi.

Mahmud Zamaxshariy nafaqat o‘z davrining, balki butun musulmon Sharqining eng buyuk mutafakkirlaridan biri sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Uning ilmiy merosiga bo‘lgan qiziqish alloma hayotlik chog‘idayoq paydo bo‘lgan va oradan asrlar o‘tgan bo‘lsa-da, u bugungi kunda ham o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan holda, turli xalqlar olimlari tomonidan doimiy o‘rganilib kelmoqda. Zamaxshariyning «Muqaddimatu-l-adab**», «Al-**Mufassal**», «**Asos al-balog‘a**», «Rabi’ al-**abror**»** kabi asarlari arab tilshunosligi, adabiyotshunoslik, falsafa va tafsir ilmining durdona manbalari sifatida qadrlanadi. Alloma merosiga oid ma’lumotlar ilk bor o‘z davrining mashhur tarixchi va adiblari – Abul Barokot al-Anbariy, Ibn al-Qiftiy, Yoqut al-Hamaviy, Ibn Xallikon va Usmon az-Zahabiy kabi olimlar tomonidan qayd etilgan bo‘lib, bu Zamaxshariy shaxsiyatiga bo‘lgan qiziqish naqadar keng va chuqur bo‘lganini ko‘rsatadi. Keyingi asrlarda esa Eron, Turkiya, Misr, Germaniya, Rossiya, O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar olimlari allomaning hayoti va ilmiy faoliyatini keng qamrovda tadqiq etib, turli risolalar, monografiyalar, maqolalar yaratdilar.

Rezyume. Mazkur maqolada Mahmud Zamaxshariyning ilmiy merosi, xususan, «Muqaddimatu-l-adab» asari tilshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiy manbalar, turli mamlakatlarda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar hamda yurtimiz olimlari tadqiqotlari qiyosiy o‘rganildi. Natijalar tilshunoslik, adabiyotshunoslik va manbashunoslik bo‘yicha izlanish olib borayotgan mutaxassislar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Resume. This article examines the scholarly heritage of Mahmud Zamakhshari, with a particular focus on his work *Muqaddimatu-l-Adab*, through linguistic and source-critical approaches. Historical records, international studies, and research by Uzbek scholars are comparatively analyzed. The findings may be useful for researchers in linguistics, literary studies, and source studies.

Резюме. В данной статье рассматривается научное наследие Махмуда Замахшари, в частности его труд «Мукамдимат аль-адаб», с позиций лингвистики и источниковедения. Анализируются исторические сведения, исследования, проведённые в разных странах, а также работы отечественных учёных. Результаты могут быть полезны специалистам по лингвистике, литературоведению и источниковедению.

[1] Исломов З.М. Маҳмуд Замахшарийнинг «Муқаддимату-л-адаб» асаридаги туркий феъллар таҳлили / Филол. фан. ном. ... диссертацияси. – Тошкент, 1993; Ўша муаллиф. Маҳмуд Замахшарийнинг «Муқаддимату-л-адаб» асарининг қўлёзма манбалари ва арабча-туркий феъллар сўзлигининг йиғма илмий-танқидий матни (Тошкент қўлёзмалари асосида) / Филол. фан. док. ... дисссертацияси. – Тошкент, 1998.

[2] Ҳакимжонов М.Ю. Маҳмуд Замахшарийнинг «Муқаддимату-л-адаб» асаридаги арабча-туркийча сўзликнинг лексикографик таҳлили /Исмлар/ Филол. фан. ном. ... диссертацияси. – Тошкент, 1994.

[3] Носирова М. Маҳмуд Замахшарийнинг «Ал-унмузаж фи-ннаҳ» рисоласи – араб тили грамматикасига оид асар. Филол. фан. ном. ... диссертацияси. – Тошкент, 2003.

[4] Болтаев А. Аз-Замахшарийнинг ижтимоий-сиёсий қарашлари. Сиёс. фан. ном. ... диссертацияси. – Б., 2007

[5] Сулаймонова Н. Маҳмуд Замахшарий «Асос-ул-балоға»синининг манбашунослик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... диссертацияси. – Т., 2007

[6] Қосимова С. XI–XIII асрларда Мовароуннаҳр тилшуносларининг араб грамматик назарияси бўйича илмий тадқиқотлари. Филол. фан. бўй. фал. док. (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019.

[7] Мирзиятов Ш. «Муқаддамату-л-адаб» асарида тилшунослик, луғатшунослик анъаналари ва арабий-туркий сўзликнинг лексик-семантик талқини». Филол. Фан. бўй. фал. док. (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2019

[8] Худжанова Д. XII асрда Мовароуннаҳрда яратилган аруз илмига оид манбалар (Маҳмуд Замахшарий ва Абу Ҳафс Насафий асарлари асосида). Филол. Фан. бўй. фал. док. (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2020.